

NEMIS ADABIYOTI VA UNING RIVOJLANISH DAVRLARI HAMDA BOSQICHLARI

Bektoshova Marjona Shomirzayevna

E-mail: bektoshovamarjona6@gmail.com

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti Xorijiy til va
adabiyoti: Ingliz tili 22/7-guruh 2-kurs talabasi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Germaniya yohud nemis adabiyoti, uning rivojlanish davrlari hamda bosqichlari haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birgalikda nemis adabiyotining adabiyot san'atida tutgan o'rni va nemis adiblari haqida ham so'z yuritilgan. Maqolamiz nemis adabiyotiga bag'ishlangan ekan, nemis adabiyotining janrlariga ham to'xtalib o'tishni lozim deb bildik.*

***Kirish so'zlar:** Adabiyot, nemis tili, jahon adabiyoti, kitobxon, ijodkor, klassisizm, adabiyotshunoslik, janr, mumtoz adabiyot.*

Kirish: Ijtimoiy-siyosiy hayotimizning barcha sohalari singari badiiy ijod, xususan, adabiyot rivoji ham mamlakatimizning doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda. Va adabiyot sohasi taraqqiy topgan har bir yurtning yutuqlari va muvaffaqiyatlari butun jahon miqyosiga chiqadi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Adabiyotga e'tibor" nomli asarlarida ta'kidlaganidek, "Bugungi murakkab va tahlikali zamonda adabiyotning ertangi kunini o'ylab odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka dav'at etishga qaratilgan so'zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi" [1] Shu bilan birgalikda nemis adabiyoti ham jahonda peshqadam o'rinlardan birini egallaydi.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiya

Nemis tili mamlakatlar adabiyot vakillaridan o'n ikki nafari Nobel mukofotiga sazovor ko'rilgan. Bundan tashqari nemis yozuvchilari o'zlarining ijodlari bilan insonlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashga, yuksak axloqiy me'zonlar darajasida

tarbiyalashga hissa qo'shmoqdalar. XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab nemis adabiyoti ko'tarilish davriga o'z qadamini qo'ydi. Germaniya adabiyotidagi eng muhim tendensiya bizning davrimizning ijtimoiy-siyosiy mavzulariga murojaat qilish va o'tmishni qayta ko'rib chiqish edi. Umuman olganda, 1960-1980-yillarda Germaniyada adabiyotning rivojlanishi, janr va uslublarning xilma-xilligi orqali ajralib turadi[2] Nemis adabiyoti haqida so'z yuritilgan, Haynrih Hayne, Lessing, Yohann Volfgang Gyote kabi adib va shoirlar kishi xotirasida paydo bo'lishi tabiiy. Sababi bunday nemis adabiyoti vakillari ijodi gumanitar, mehr-muhabbatga to'la ekani, o'z davrining ilg'or kishilari bo'lganliklari ularni bugungi kunga qadar nemis adabiyoti hamda jahon adabiyotida o'chmas iz qoldirgan va ularning asarlari jahon adabiyoti durdonalariga aylangan. Bu adib va shoirlarning asarlarini mutolaa qilgan kitobxon ijodkorlarning ichki kechinmalari, dunyoqarashi, o'z davri ruhiyati, o'tmish va kelajak haqidagi o'ylari haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Bizning fikrimizcha, bugungi nemis adabiyoti kayfiyati, his-tuyg'ulari, o'ylari mumtoz nemis adabiyotidan tubdan farq qiladi. Bunga insonlar dunyoqarashi va zamon sabab deb o'ylaymiz. Quyida biz nemis adiblari ijodi va ijodidagi yangi adabiy mulohaza, jamiyatning yangi muammolarini yoritishlari haqida bir qancha misollarni keltirmoqchimiz. Germaniyalik yozuvchi ayol Jenny Erpenbeckning ijodi kitobxonga umrning qadriga yetish kerakligini uqtiradi. Ijodkorning "O'tmishga aylanadigan narsalar" nomli kitobida shunday mazmundagi hikoyalar yoritiladi[3]

Muhokama va Natija

Germaniyada ijtimoiy-siyosiy norozilik kayfiyatlari adabiyotda ham o'z ifodasini topdi. XVIII asr adabiyotiga bir qator buyuk yozuvchi ma'rifatparvarlarni yetishtirib berdi. Nemis ma'rifatparvarlik adabiyoti o'z jarayonida to'rt bosqichni bosib o'tadi:

1. XIII asrning 20-50 yillariga to'g'ri keladi va klassisizmni o'z ichiga oladi;
2. 60-yillarni ichiga oladi va hayotni tasvirlash realistic omillar g'alaba qiladi;
3. 70-80-yillar o'zlarini shtyurmerlar deb atab, o'zlari mansub yo'nalishni "Bo'ron va hujum" deb nomlaganlar;
4. XVIII asr, 80-90-yillarning ikkinchi yarmi klassisizm tendensiyalari qayta

jonlanadi.

XVIII asrda nemis adabiyoti erishgan ulkan muvaffaqiyatlar jahon madaniyatiga bebaho hissa bo'ldi. Va xuddi shu asrda nemis adabiyoti Ovro'poning boshqa mamlakatlari adabiyoti singari turlicha rivojlanish bosqichlarini o'taydi. Nemis klassik adabiyotining yetukligi butun Germaniyada keng tarqalishi, nemis milliy adabiy tilining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Nemis tili adabiyotining keying rivojlanishi, taraqqiy etishi tiklangan norma sohasida sodir bo'ladi. Sodir bo'layotgan o'zgarishlar nemis milliy adabiyotining yaratilishini tezlashtiradi va siyosiy jarayonda nemis millatining takomillashuvining yakunlanishiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. XVII asr nemis adabiyotiga ikki yo'nalish barokko va klassisizm keng tarqalgan edi. Oldinlari "barokko" termini adabiyotshunoslikka qo'llangan bo'lsa, keyinchalik san'atshunoslikda ham qo'llanilgan[4]

Xulosa

Xulosa qiladigan bo'lsak Germaniyada adabiyot sohasi ya'ni nemis adabiyoti bugungi kunda juda taraqqiy topgan. Bir qancha nemis adiblari va shoirlarning asarlari va ijodlarida o'tmish juda yorqin tasvirlangan bo'lsa, ayrimlarida esa hozirgi kunning yutuqlari va kamchiliklari tanqidiy qilib tasvirlangan. Germaniya adabiyoti o'tmishdan shu kunga qadar buyuk bir tarixga ega va nemis adiblari ana shu tarixni o'rganuvchilarga ajoyib tarzda yoritishga harakat qilib o'z hissalarini qo'shib kelishmoqda. Nemis adabiyoti bizga adabiyotning eng go'zal janrlarini o'rganishimizga imkoniyat yaratib beradi desak ham adashmagan bo'lamiz. Nemis adabiyotiga tashrif buyurish orqali biz Germaniyaning eng mashhur adiblari va ularning ijodlari bilan hamda nemis adabiyoti va uning janrlari bilan batafsil tanishish imkoniga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. Karimov "Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor". O'zbekiston san'ati va adabiyoti: 2009, 3-iyul

2. R. B. Sadiyeva “XX asrning ikkinchi yarmida Germaniyada Federativ Respublikaning madaniyati va ijtimoiy hayoti”. Innovations in technology and Science education.2023
3. Qochqorova H, Soatov F “Bugungi kun nemis adabiyoti”. Tashkent, Uzbekistan
4. Sh. Q. Karimov “Nemis adabiyoti tarixi”. Tashkent-2003. 37-bet
5. <https://humoscience.com>
6. <https://conferences.neasmo.org.ua.com>
7. <https://oefen.uz>
8. <http://fayllar.org>
9. <http://refer.uz>
10. <https://arxiv.uz>